Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320329

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

IQTISODIYOTDA TURIZM O'RNINI STATISTIK BAHOLASH USLUBIYOTI

JUMANOVA ZILOLA TUYCHIYEVNA
TDIU, Ekonometrika kafedrasi PhD,v.b dotsent
SUR'ATOVA MOHIRAXON SHAVKAT QIZI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2-kurs magistri

ANNOTATSIYA. *Ushbu tezisda iqtisodiyotda turizm o'rnini statistik baholash uslubiyoti tahli qilinadi. Turizmning to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita va multiplikativ ta'sirini baholashda qo'llaniladigan xalqaro standart usullar, jumladan Turizm yordamchi hisoblari (TYoH), koeffitsiyentlar usuli va ekonometrik modellashtirish yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm statistikasi, uslubiyot, Turizm yordamchi hisoblari (TYoH), to'g'ridan-to'g'ri ta'sir, bilvosita ta'sir, multiplikativ ta'sir, milliy hisoblar tizimi, ekonometrik modellashtirish.*

АННОТАЦИЯ. *В данном тезисе анализируется методология статистической оценки места туризма в экономике. Освещаются международные стандартные методы, используемые для оценки прямого, косвенного и мультипликативного воздействия туризма, включая Счета спутники туризма (ССТ), метод коэффициентов и эконометрическое моделирование.*

Ключевые слова: *статистика туризма, методология, Счета спутники туризма (ССТ), прямое воздействие, косвенное воздействие, мультипликативное воздействие, система национальных счетов, эконометрическое моделирование.*

ABSTRACT. *This thesis analyzes the methodology of statistical assessment of tourism's place in the economy. International standard methods used to evaluate the direct, indirect, and multiplicative impact of tourism are covered, including Tourism Satellite Accounts (TSA), the coefficient method, and econometric modeling.*

Keywords: *tourism statistics, methodology, Tourism Satellite Accounts (TSA), direct impact, indirect impact, multiplicative impact, system of national accounts, econometric modeling.*

Turizmining iqtisodiyotdagi o'rnini statistik baholashda xalqaro standartlarda qo'llanilayotgan uch usulning (to'g'ridan to'g'ri, bilvosita va multiplikativ) har biri uchun bir necha turdagi statistik usullar keng foydalaniladi.

Published: 05.06.2026

Cite this article: Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi (2026). Iqtisodiyotda turizm o'rnini statistik baholash uslubiyoti. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320329

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Bizning fikrimizcha, turizmning iqtisodiyotdagi o‘rnini to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sirini baholashda eng to‘g‘ri statistik metod bu milliy hisoblar tizimidagi turizmning yordamchi hisobi va uning jamlanma jadvallaridir.

Turizmning bilvosita o‘rnini statistik baholashda asosiy statistik usul – bu koeffitsiyentlar usulidir. Bunda har bir sohada turizmning ulushini hisoblash va bilvosita ta’sirini o‘rganish zarur bo‘ladi.

Turizmining iqtisodiyotdagi o‘rnini multiplikativ ta’sirini statistik baholashda ko‘p qo‘llaniladigan metod – bu ekonometrik modellashtirish bo‘lib, bunda makroiqtisodiy tarmoqlar bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi.

Turizmni rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlashda Turizm yordamchi hisoblari(TYoH) juda muhim va asosiy manbalardan biridir. Turizm yordamchi schyotlari hisobi deb ba’zi adabiyotlarda Satelistik schyotlar tushuniladi. Satellite ingliz tilidan tarjima qilinganda yo‘ldosh degan ma’noni bildiradi, iqtisodiyotda bu yordamchi hisoblar ma’nosida qo‘llaniladi. Turizm sohasining yordamchi hisoblari orqali tahlili qilinishiniing asosiy sababi turizm aniq bir tarmoqda joylashmaganligidadir. Turizm yordamchi hisobi jadvallar orqali turli tarmoqlardan ma’lumotlarini yig‘ib keyin tahlil qiladi.

“Turizm yordamchi hisobi – 2008”da keltirilishicha, Turizm yordamchi hisobi bu tashrif buyuruvchilarning xarajatlari va iste’moli to‘g‘risida, shuningdek, turizm sohasini makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini MHT bilan uyg‘un holda shakllantirishni ifodalaydi.

Turizm yordamchi hisobi(TYoH) Milliy hisoblar tizimining muhim hisoblaridan biri bo‘lib, uni O‘zbekiston milliy statistika amaliyotiga to‘liq joriy qilish hamda TYoH ko‘rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish iqtisodiyotimizning strategik sohasi hisoblangan turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish imkonini beradi.

Statistik ma’lumotlarni to‘plashda va ularni sifati va reprezentativligini oshirishda o‘ta muhim hisoblanadi. Ma’lumki, raqamli iqtisodiyot – bu yangi texnologiyalar, platformalar joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir.

Turizm yordamchi hisobi asosan o‘nta jadvaldan iborat bo‘lib, respublikada keyingi yillarda barcha jadvallar to‘liq shakllantirilib, Statistika saytida berib borilmoqda.

1.1-jadval

Turizmning to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sirini hisoblashda asosiy turizm ko‘rsatkichlari[251]

	Turizm faoliyati	Hisoblash usuli	Hisoblash davri

[251] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1.	Kirishga oid turizm iste’moli	TYoH	yillik
2.	Ichki turizmga oid xarajatlar	TYoH	yillik
3.	Chiqishga oid turizm xarajatlari	TYoH	yillik
4.	Mamlakat ichidagi turizmga oid iste’mol	so‘rovnoma	yillik
5.	Turizm tarmog‘ida ishlab chiqarish hisobi	TYoH	choraklik
6.	Mamlakat ichidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri turizm taklifi	TYoH	choraklik
7.	Turizm tarmoqlaridagi bandlik	so‘rovnoma	yillik
8.	Turizm tarmoqlarida asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi	MHT	choraklik
9.	Jamoaviy turar joylar faoliyati	so‘rovnoma	yillik
10.	Turizm rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari	MHT	choraklik

Ba’zi jadvallar hisobotlar asosida boshqalari esa so‘rovnomalar bo‘yicha to‘ldiriladi. Har bir jadvalda xalqaro standartlar talabiga ko‘ra quyidagi tarmoqlar bo‘yicha ma’lumotlar bo‘lishi zarur.

BMT va WTO statistika standartlaridan foydalanish imkoniyati to‘laroq va taqqoslash mumkin bo‘lgan statistik tadqiqotlar o‘tkazish, statistik bashoratlar tuzish, hududiy bo‘linma miqyosida turizmda yordamchi hisob ishlab chiqish imkonini beradi. Turizmdagi statistik vazifalarga quyidagilar kiradi: tashrif buyuruvchilarni statistik tahlil qilish, turistik iste’mol va joylashtirish obyektlari faoliyati samaradorligini tahlil qilish; turizmda yordamchi hisob tuzish va h.k. Bu muammolarni samarali hal etish uchun rivojlangan turizm infratuzilmasiga ega bo‘lgan mamlakatlar statistik ishlanmalarining uzoq muddatli tajribasidan va shunga mos ravishda turizm statistikasidan foydalanish juda muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi paytda turizmda statistik kuzatuv o‘tkazish uslubiyoti endi shakllanish bosqichida. Mintaqaviy statistikasini rivojlantirishga yangi yondashuvlar yaratilmoqda, ular yangi statistik ko‘rsatkichlar va hisobot shakllarini joriy etishni o‘z ichiga oladi.

1.2-jadval

Turizm ko‘rsatkichlarini asosiy tarmoqlari bilan bog‘liqligi

1	Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo‘yicha xizmatlar
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari
3	Temir yo‘l yo‘lovchi transporti xizmatlari
4	Temir yo‘lovchi transport xizmatlari
5	Quruqlikdagi yo‘lovchi transporti xizmatlari

6	Suv yo‘li transport xizmatlari
7	Havo yo‘li yo‘lovchi transporti xizmatlari
8	Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari
9	Turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo‘yicha boshqa xizmatlar
10	Turizm agentliklari xizmatlari
11	Ekologik va ma’muriy xizmatlar
12	Madaniyat sohasidagi xizmatlar
13	Rassomchilik xizmatlari
14	Muzeylar va boshqa madaniy xizmatlar
15	Sport va dam olish bo‘yicha xizmatlar
16	Turizmga doir boshqa xizmatlar
17	Bank xizmatlari
18	Sug‘urta xizmatlari
19	Pochta xizmatlari
20	Mahalliy korxonalarning xizmatlari
21	Konferensiya va ko‘rgazma xizmatlari
22	Savdo xizmatlari
23	Umumiy iste’mol

Ammo turizmni statistik qo‘llab-quvvatlashda jiddiy muammolar hali ham aniqlanmoqda, ular quyidagilar bilan bog‘liq: O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib, xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, statistika tashkilotlari oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarayotgan paytda yuzaga keladigan statistikaning bir qator metodologik muammolari hal etilmaganligi; O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarning yo‘qligi; axborotning “tarqoqligi” va foydalanuvchilarning kerakli axborotni olishdagi qiyinchiliklari; statistik axborot olish va uni barcha manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etish bo‘yicha qonunchilik bazasining mukammal emasligi; ijroiya hokimiyat organlarining statistik axborot resurslarini shakllantirish va ulardan axborot olishda huquq va majburiyatlarini tartibga solinmasligi.

Turizm sohasida statistika hisobi va kuzatuv masalalariga ko‘plab tadqiqotlar bag‘ishlangan. Shu bilan birga, turizmni yanada rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida bashorat qilish va boshqaruv qarorlari qabul qilishda ulardan samarali foydalanish uchun ishonchli va to‘liq makroiqtisodiy statistika ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida olishga imkon beradigan davlat organlari uchun axborot va statistik qo‘llab-quvvatlash yagona tizimini yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Afsuski, bu sohadagi tadqiqotlar tarqoq, noto‘liq xarakterga ega bo‘lib, O‘zbekiston turizm sohasida statistik kuzatuvni tashkil etish uchun keng qamrovli uslubiy yordam ishlab chiqishdan ancha uzoq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shodiev X. va Xabibullaev I. Statistika: darslik//– T.: «IQTISOD-MOLIYa», 2019.-454 b.
2. G‘oyibnazarov B.K., Kolonova L. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. - T.: 2007.– 106 b.
3. A.X. Pardayev, A.N.Norchaev. Xalqaro turizm. -Darslik. – T.: TDIU, 2010 y -260 b.
4. D.M.Demioz and S.Ongan (2005), The contribution of tourism to long run Turkish economic growth, Ekonomcky Casopis, 9, pp. 880-894
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.
6. https://uniwork.buxdu.uz/resurs

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

ОЗОДА МАМАЮНУСОВНА ПАРДАЕВА
Тошкент Давлат Иқтисодиёт университети Самарқанд флиалида кафедра мудири, доцент, PhD.

Аннотация. Мазкур мақолада туризмни ривожлантиришда оилавий тадбиркорлик тизимини такомиллаштириш йўналишларининг назарий-методологик асослари таҳлил қилинган. Шунингдек, ушбу жараёнда рақамли технологиялардан самарали фойдаланиш орқали туризм хизматлари сифати ва самарадорлигини ошириш, маҳаллий ресурслардан унумли фойдаланиш ва оилавий бизнеснинг рақобатбардошлигини кучайтириш масалалари ҳам ёритилган. Тадқиқот натижасида мазкур соҳани ривожлантиришга қаратилган илмий-услубий, амалий таклиф ва тавсиялар ҳам ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: “ақлли туризм”, оилавий тадбиркорлик, рақамли иқтисодиёт, инновация, туризм хизматлари, туризм хизматлари сифати, туризм хизматлари самарадорлиги, рақобатбардошлик.

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы направлений совершенствования системы семейного предпринимательства в развитии туризма. Также освещаются вопросы повышения качества и эффективности туристических услуг за счёт эффективного использования цифровых технологий, рационального использования местных ресурсов и усиления конкурентоспособности семейного бизнеса. По результатам исследования разработаны научно-методические и практические предложения и рекомендации, направленные на развитие данной сферы.

Ключевые слова: «умный туризм», семейное предпринимательство, цифровая экономика, инновации, туристические услуги, качество туристических услуг, эффективность туристических услуг, конкурентоспособность.

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP IN TOURISM DEVELOPMENT

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of improving the system of family entrepreneurship in tourism